



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

2023
3-СОН



# СЕРВИС

**ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 3-сон**

**Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти**

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда 0561-рақам билан рўйхатга олинган.
ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий жамоаси:**
**Бош муҳаррир:**
и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
профессор Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**
профессор М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**
Ф.А.Сафаров
Ш.З.Ўрозов

**Техник муҳаррир:**
А.Н.Холиқулов

**Корректор:**
С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**
Ҳ.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида тарқатилади.**

**Таҳририят манзили:**
140100, Самарқанд шаҳар, Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

**Таҳририят кенгаши раиси:**
**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

**Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:**
**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

**Таҳрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ каф.мудири, профессор, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ Самарқанд филиали директори, иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Р.Болтабаев** – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ каф. мудири, и.ф.д., профессор

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ кафедра мудири, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ декани, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ доценти, и.ф.д.

# М У Н Д А Р И Ж А


| | |
|---|---|
| **НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ** | |
| **Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Мурод Муҳаммедович Муҳаммедов**<br>Иқтисодиёт – инсоннинг юксак тафаккур маҳсули | 5 |
| **Umar Xudayberdiyev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova**<br>Aholi daromadlari va ularni ko‘paytirish yo‘llari. | 11 |
| **Shao Junling**<br>Analysis of the role of institutional frameworks in promoting the qualitative development of the economy of the region " Belt and Road" | 14 |
| **Kudratjon Bakhtiyorovich Dilmanov**<br>Characteristics of human power | 17 |
| **Bekjon Shukurillayevich Musayev**<br>Oliy ta’lim xizmatlarini targ‘ib qilishning nazariy asoslari | 21 |
| **Ашур Али Рустам ўғли Латипов**<br>Маҳаллада янги иш ўринларини яратиш ва бандликни оширищдаги қулайликлар ва имкониятлар | 27 |
| | |
| **ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ** | |
| **Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов**<br>Инновацион товарларни бозорда силжитишнинг ўзига хос жиҳатлари | 33 |
| **Шохрухбек Жахонгирович Расулов**<br>Развитие нового содержания финансов в условиях инновационного развития экономики | 36 |
| | |
| **САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ** | |
| **Отабек Джурабаевич Джурабаев**<br>Определение направлений оптимизации операционной стратегии и повышения экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров | 42 |
| **Умар Худайбердиев, Нилуфар Зиябаевна Юлдашова**<br>Ўзбекистонда чорвачилик маҳсулотларини етиштирищдаги муаммолар | 46 |
| **Жамолиддин Ярашевич Нуриллаев**<br>Влияние экономической либерализации на производство и эффективность продукции в мировом овцеводстве и каракулеводстве | 49 |
| **Лариса Алишеровна Мусабаева**<br>B2B маҳсулотларининг мижозлар капиталини таркибий-функционал таҳлил қилиш амалиёти | 53 |
| | |
| **ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС** | |
| **Shoxista Abdugapparovna Mamasoliyeva**<br>Tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar boshqarish tizimini samaradorligini oshirishni iqtisodiy mexanizmlari tahlili | 58 |
| **Машхур Исмоналиевич Акбаров, Кудрат Шухратович Искандаров**<br>Темирйўл транспортида йўловчи ташиш сервис хизматларини баҳолаш ва такомиллаштириш йўллари | 64 |
| **Мурод Мақсудович Паязов**<br>Темир йўл транспорти хизматлар тизимидаги бошқарув механизмининг моҳияти ва ривожлантириш методологияси | 70 |
| **Зарина Муродовна Мухаммедова**<br>Хизматлар соҳасининг тармоқлар бўйича таркибий тузилишини такомиллаштириш асосида инвестицион ресурслар самарадорлигини ошириш | 76 |

| М.Пардаев, М.Мухаммедов **Экономика — продукт выдающегося человеческого мышления** | **M.Pardaev, M.Mukhammedov Economics is the product of great human thinking** |
|---|---|
| **Аннотация:** Статья посвящена исследованию актуальных проблем экономики, главного критерия человеческой жизни и ее осмысленного и благополучного прохождения. Авторы приводят логические рассуждения и мнения о причинах появления экономической деятельности в истории человеческого общества, ее глубоких корнях, ее роли в эволюции образа жизни человека, факторах совершенствования, перспективах развития. С точки зрения экономической науки обосновано, что существование значительных и сверхзначительных различий в благосостоянии населения, средней заработной платой среди групп и категорий населения внутри страны, как и между странами на мировом уровне, является результатом экономического мышления. | **Abstract:** The article is devoted to the study of current problems of economics, the main criterion of human life and its meaningful and successful passage. The authors provide logical reasoning and opinions about the reasons for the emergence of economic activity in the history of human society, its deep roots, its role in the evolution of human lifestyle, factors of improvement, and development prospects. From the point of view of economic science, it is substantiated that the existence of significant and extremely significant differences in the well-being of the population, average wages among groups and categories of the population within the country, as well as between countries at the global level, is the result of economic thinking. |
| **Ключевые слова:** экономика, человек, орудия труда, природа, потребность, производство, распределение, обмен, потребление. | **Keywords:** economy, human, tools, nature, demand, production, distribution, exchange, consumption. |

**Umar Xudayberdiyev** – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi,
**Sevara Abdinazarovna Babanazarova** – – SamISI katta o‘qituvchisi, PhD.

## AHOLI DAROMADLARI VA ULARNI KO‘PAYTIRISH YO‘LLARI

**Annotatsiya:** Maqolada aholi daromadlari mohiyati, ularning turlari va keyingi besh yildagi ko‘payishi bayon qilingan. Shu bilan birga aholi daromadlarini ko‘paytirish imkoniyatlari yoritib berilgan.
**Kalit so‘zlar:** aholi daromadlari, mehnat haqi, tadbirkorlik, mulk ijarasi, transfertlar, pensiya, nafaqa, kasanachilik, tomorqa, iqtisodiy rivojlanish.

**Kirish.** Bozor munosabatlari sharoitida aholi aql-zakovatini, tadbirkorligini, tajribasini namoyon etib, qonunda taqiqlanmagan (qonunda taqiqlanganlari: narkotik moddalar bilan shug‘ullanish, qurol-yaroq bilan savdo qilish va shu kabilar) barcha faoliyat turlari bilan shug‘ullanib, daromad topish imkoniyatini yaratdi. Hozirgi paytda aholi tadbirkorlik bilan shug‘ullanib; ishchi sifatida ishlab, mehnat haqi; hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, foyda; tomorqada dehqonchilik qilib, daromad; mol-mulkni ijaraga berib, ijara haqi; tijorat banklariga omonatlar qo‘yib, foiz daromadlarini olmoqdalar. Bundan tashqari aholi chet mamlakatlarda ishlayotgan fuqoralardan (migrantlardan) ham pul o‘tkazmalari natijasida daromad oladilar. Pensionerlar pensiya oladilar, nogironlar, yosh bolalilar nafaqa oladilar, kam ta’minlangan oilalarga turli moddiy yordam beriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlil.** Oila iqtisodiyoti, aholi daromadlari masalalari iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarining mavzusi bo‘lib kelgan. Bu borada akademiklar S.G‘ulomov, Q.Abdurahmonov, i.f.d., professorlar A.Ulmasov, M.Pardayev, Yo.Abdullayev, G.Shodiyeva, Sh.Quvandiqov va boshqa oila mulki xususida, oila daromadlarining turlari borasida muhim tavsiyalar berganlar. Lekin oila daromadlarini ko‘paytirish va aholi turmush darajasini yaxshilash hamma vaqt dolzarb bo‘lib kelgan. Ayniqsa bu mavzu Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil - bu insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo‘lishi kerak. Shu maqsadda kelgusi yili mahallalarda aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o‘qitilgan har bir shaxs uchun o‘quv

markazlariga 1 million soʻmgacha subsidiya berilib, buning uchun budjetdan 100 milliard soʻm ajratiladi. Oʻquv kurslarini tamomlab, oʻz biznesini boshlamoqchi boʻlgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million soʻmgacha subsidiyalar beriladi. Shuningdek, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yoʻnalishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shugʻullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratiladi. Ehtiyojmand aholi bandligini taʼminlashga Bandlikka koʻmaklashish hamda Jamoat ishlari jamgʻarmalaridan 500 milliard soʻm yoʻnaltiriladi.” hamda “…hisob-kitoblarga koʻra”[1] aholining 12-15 foizi kam taʼminlangan ekanligi taʼkidlanib, Prezidentning 2020-yil 26-martdagi PF-5975 – sonli “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambagʻallikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonidan keyin yanada dolzarb va hozirgi zamonoviy muammo boʻlib kelmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, analiz va sintez, statistik maʼlumotlarni guruhlash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakat Prezidenti va hukumati koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida aholi daromadlari yildan yilga koʻpayib bormoqda. Buni quyidagi statistik maʼlumotlar tasdiqlaydi.

**Oʻzbekiston aholisi 2018-2022-yillardagi umumiy daromadlari**

| t/r | Yillar / Koʻrsatkichlar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2022 yil 2018 yilga nisbatan %da oʻsishi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Aholining umumiy daromadlari, mlrd.soʻm. | 285553,1 | 365735,6 | 415085,0 | 521307,6 | 634800,0 | 222,3 |
| 2 | Aholi soni, ming kishi. | 32656,7 | 33255,5 | 33905,2 | 34558,9 | 35271,3 | 108,0 |
| 3 | Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming soʻm. | 8744,1 | 10997,7 | 12242,5 | 15084,6 | 17997,6 | 205,8 |

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, ushbu davrda, yaʼni 5 yil ichida aholinig umumiy daromadlari 2018-yilda 285553,1 mlrd. soʻmdan, 2022-yilga kelib, 634800,0 mlrd. soʻmga (2.2 barabar) oshgan. Mamlakat aholisi sonining koʻpayishini hisobga olgan holatda, aholi jon boshiga daromadlar, ushbu davrda 2 barabarga koʻpaygan. Aholi daromadlari tarkibini oʻrganar ekanmiz, ularning ishlab chiqarishdan olgan daromadlari, yaʼni tadbirkorlikdan, yoʻllanma ishchilarning olgan daromadlari kata hissani tashkil etishi aniqlandi. Bunday daromadlar 2022-yil aholi umumiy daromadlarining 68,0 foizini tashkil etgan. Shaxsiy isteʼmol uchun oʻzida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan olingan daromadlar – 6,3 foizni, mol-mulkdan olingan daromadlar – 2,3 foizni tashkil etgan. transfertlardan olingan daromadlar 2022-yil umumiy daromadlarning 29,8 foizini tashkil etib, oʻtgan yillarga nisbatan biroz hissasi koʻtarilgan.

Hududlar boʻyicha Toshkent shahri va viloyatida, hamda Navoiy viloyatida ishchilar daromadlarining hissasi yuqori, chunki bu viloyatlarda va Toshkent shahrida ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish koʻproq rivojlangan. Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida xodimlar mehnati orqali olinadigan daromadlar umumiy daromadlar hissasida kamdir.

Samarqand, Xorazm, Surxondaryo viloyatlarida aholi umumiy daromadlar hissasida chetdan (mamlakat tashqarisidan) kelib tushgan pul oʻtkazmalarining ulushi kattadir. Ular Samarqand aholisida 2022-yilda – 28,8 %ni, Xorazm viloyati aholisida – 31,1 %ni va Surxondaryo aholisi daromadlarida – 25,8 %ni tashkil etgan.

Statistik maʼlumotlarga qaraganda, mamlakatimizga 2021-yilda chetdan – 8,1 mlrd. dollar, 2022-yilda rekord darajada yaʼni, 16,9 mlrd. dollarlik mablagʻ kelib tushgan. Lekin shu bilan birga bu maʼlumotlar yuqoridagi viloyatlarda ortiqcha ishchi kuchi mavjudligini va kelgusida bu hududlarda sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqib, yangi korxonalar ochib, ish oʻrinlarini koʻpaytirish lozimligini koʻrsatadi.

[1] https://president.uz/oz/lists/view/4057

Mamlakat Prezidenti Farmonlariga binoan ish haqi, pensiyalar va stipendiyalar miqdori har yili oshirilmoqda. Joriy yil (2023-yil) 1 apreldan pensiyalar, 1 maydan esa ish haqi 7,0%dan oshirildi.

Aholining umumiy daromadlarining tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar katta salmoqqa ega.

**Aholining umumiy daromadlari tarkibi**

| t/r | **Aholi daromadlari tarkibi** | **2022-yil (yanvar-mart oylari)** | **2023-yil (yanvar-mart oylari)** |
|---|---|---|---|
| 1 | Umumiy daromadlar – jami | 100% | 100% |
| 2 | Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar | 62,2% | 60,4% |
| 3 | Shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlaridan olingan daromadlar | 8,5% | 8,3% |
| 4 | Mol-mulkdan olingan daromadlar | 3,0% | 3,4% |
| 5 | Transfertlardan olingan daromadlar | 26,3% | 27,9% |

Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o‘sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 60,4 % ulushga ega bo‘lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) va 27,9 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o‘zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2023-yil 8-may kuni Referendum yakunlariga bag‘ishlangan chiqishda, “Biz O‘zbekistonni ijtimoiy davlat deb e’lon qildik. Mamlakatimizda 2 million 200 mingdan ziyod ijtimoiy ko‘makka muhtoj, davlatdan yordam olayotgan oilalar bor” deb, bundan keyin ham ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori muntazam oshirilib borishini ta’kidladi. Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar safiga olib chiqish uchun, hududlarda sharoitidan, tabiiy resurslar mavjudligidan kelib chiqib, ishlab chiqarishni ko‘paytirish, xizmat turlarini kengaytirish zarur. Natijada yangi ish o‘rinlari yaratilib, aholi daromadlari ko‘payadi va turmush darajasi yaxshilanadi.

**Xulosa va takliflar.** Mamlakat iqtisodiyotini yuqori sur’atlar bilan rivojlantirish va aholi daromadini ko‘paytirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- Birinchidan, Yaponiya, Singapur tajribasidan foydalanib, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirib, fan-texnika va zamonaviy texnologiyalarni tezroq ishlab chiqarishga joriy qilish lozim. Buning uchun ishlab chiqarishda yaxshi, samarali natijalarga erishganlarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish kerak;
- Ikkinchidan, hududlarning tabiiy sharoiti, mavjud resurslarni hisobga olib, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni ko‘paytirish lozim;
- Uchinchidan, xizmat ko‘rsatish turlari juda ko‘p bo‘lib, uni amalga oshirish uchun juda katta mablag‘ talab qilmasligini inobatga olib, joylarda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarni ko‘paytirish lozim. Buning uchun kasb-hunar maktablarida, monomarkazlarda qisqa muddatli kurslarda talabga binoan hunarlarga o‘rgatish lozim bo‘ladi. Ayniqsa qishloq joylarda maishiy texnikalarni (televizor, muzlatkich, changyutgich kabilarni) ta’mirlash ustaxonalari, sartaroshxona va ayollar salonlari, transport vositalarini tuzatish kabi ishlarni ko‘paytirish, qishloq aholisini ish bilan ta’minlab, daromadini ko‘paytirishga sabab bo‘ladi;
- To‘rtinchidan, joylarda kasanachilikka katta ahamiyat berish zarur. Kasanachilik o‘z uylarida biror ish bajarib, daromad olish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa kasanachilik xotin-qizlar uchun juda qulay. Ular ro‘zg‘or ishlaridan bo‘sh paytida bemalol kasanachilik bilan shug‘ullanishi mumkin;
- Beshinchidan, sug‘oriladigan yerlarning katta qismi aholi tomorqasi hisoblanadi. Bundan tashqari ishsiz, kam ta’minlangan oilalarga imkoniyatidan kelib chiqib, yerlar taqsimlab berilmoqda. Bunda aholining yerdan samarali foydalanishi uchun urug‘lik, ko‘chatlar, mahsuldor navlar, mahsulotlarni sotish kabi ishlarda tashkiliy yordam ko‘rsatuvchi uyushma tuzish;
- Oltinchidan, O‘zbekistonda yarishin iqtisodiyot ancha hissani tashkil etadi. Ayniqsa, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, transport xizmatlarida ko‘p. Ularning sohalari bo‘yicha uyushmalar tashkil etib, faoliyatlarini legallashtirish lozim. Yurudik maqomga ega bo‘lgan bunday

uyushmalar, buyurtma asosida ishlab, sifatli binolar quradi, sifatli savdo, transport va boshqa xizmatlar ko‘rsatadi. Xodimlariga vaqtida qonunga muvofiq mehnat haqi, davlat budjetiga esa soliqlar to‘laydilar.

Xullas, mamlakat iqtisodiyoti yuqori sur’atlar bilan rivojlansa, aholi daromadlari ko‘payib, boy bo‘ladi, mamlakat qudratli bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 20-dekabrdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 8-maydagi Konstitutsiyaviy Referendum yakunlariga bag‘ishlangan chiqishi.
3. Pardayev M., Pardayev O. Kambag‘allikni baholash va uni kamaytirish yo‘llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand, SamISI, 2020-y.
4. Shodiyeva G.M. Oila xo‘jaligini oshirish: muammolar va ularning yechimlari. T.:, “Fan”, 2006-y.
5. www.stat.uz.

| | |
|---|---|
| **У.Худайбердиев, С.Бабаназарова**<br>**Доходы населения и пути их увеличения**<br><br>**Аннотация:** В статье рассмотрены сущность доходов населения, их виды и прирост за последние пять лет. Наряду с этим, освещены возможности повышения доходов населения.<br>**Ключевые слова:** доходы населения, заработная плата, предпринимательство, имущественная рента, трансферты, пенсия, пособие, домашнее хозяйство, имение, экономическое развитие. | **U.Khudayberdiev, S.Babanazarova**<br>**Incomes of the population and ways to increase them**<br>**Abstract:** The article reveals the essence of the income of the population, their types and their growth over five years. At the same time, opportunities for increasing the income of the population were highlighted.<br>**Keywords:** income of the population, wages, entrepreneurship, property rent, transfers, pension, allowance, household, estate, economic development. |

**Shao Junling** – Researcher, Tashkent State University of Economics

## ANALYSIS OF THE ROLE OF INSTITUTIONAL FRAMEWORKS IN PROMOTING THE QUALITATIVE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE REGION "BELT AND ROAD"

**Abstract:** The "Belt and Road Initiative" has entered a new stage and its main goal is to provide high-quality assistance to the development of the regional economy. Currently, international economic integration is identified as one of the main tasks. Based on the relevance of this issue, the article analyzes the mechanisms of cooperation in the direction of sustainable development of the One Belt, One Road initiative, as well as the possibility of creating a system to support sustainable development.
**Keywords:** "One Belt, One Road", high-quality development, institutionalized construction, regional economy.

**Introduction.** Chinese President Xi Jinping‘s interpretation of the connotation of high-quality development in the construction of the “Belt and Road” mainly comes from two fields: one is the official interpretation represented by officials (or former government officials) in competent departments; the other is the interpretation by the academic community.

Fan Hengshan, the former deputy secretary-general of the National Development and Reform Commission, summed up the high-quality development of the "Belt and Road" construction as follows: The principle of extensive consultation, joint contribution and shared benefits should continue to be adhered to, and more attention should be paid to the connection with relevant national development strategies and basic interests; the consciousness of a community of shared future with shared rights and responsibilities, and more emphasis on promoting the formation of an effective operating mechanism and a fair and just governance system. [1]

ISSN 2091-5187

# ☙ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят бўлимида нашрга тайёрланди.

07.09.2023 йилда теришга берилди. 22.09.2023 йилда босишга рухсат этилди. Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60х84 $_{1/8}$. “Times” гарнитураси. Офсет босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт табоғи 13,6. Адади 100 нусха. Буюртма № 0074А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023